



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 376 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlar (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmamatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Миллий komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
<i>Baltayeva Xalima Toraboyevna</i>	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
<i>Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
<i>Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna</i>	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
<i>Khamidova Shabnam Gulakhmadovna</i>	
Sharq va G'arb pedagogik an'alarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
<i>Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi</i>	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
<i>Ismailova Dildora Qudratullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
<i>Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
<i>Mirzayeva Kamola Ikrom qizi</i>	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
<i>Shermatova Nazokat Safarovna</i>	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
<i>Zulayxo Mamajanova</i>	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
<i>Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна</i>	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
<i>Baxtiyor Odilovich Saidov</i>	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
<i>Икрамова Мунира Маруфжановна</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
<i>Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi</i>	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
<i>Iskandarova Risolat Ravshanbekovna</i>	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
<i>Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich</i>	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
<i>Boboyarova Nilufar Saydullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
<i>Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna</i>	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
<i>Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi</i>	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
<i>Adilov Baxadir Tanatarovich</i>	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inkluziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	

INTEGRAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORLASHDA XORIJ TAJIRIBASI

Usmanova Shaxnoza Baxodirovna

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0007-0958-5761>

Annotatsiya: Mazkur maqolada integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashga oid xorijiy tajriba - Germaniyaning Musikhochschule tizimi, Finlyandiyaning Sibelius akademiyasi modeli, AQShning NASM standartlari va pedagogik metodikalar integratsiyasi hamda Yaponiyaning Suzuki an'anasi - qiyosiy tahlil qilingan. Har bir modelning integratsion mohiyati, kuchli tomonlari va cheklovlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan, shuningdek ushbu tajribalarni O'zbekiston musiqa-pedagogik ta'limiga tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: integral yondashuv, musiqa o'qituvchisi, xorijiy tajriba, qiyosiy pedagogika, Musikhochschule, Suzuki metodi, Kodály metodi, kasbiy tayyorgarlik, musiqa pedagogikasi, oliy ta'lim.

Abstract: This article provides a comparative analysis of foreign experience in the professional training of prospective music teachers based on an integral approach - Germany's Musikhochschule system, Finland's Sibelius Academy model, the United States' NASM standards and integration of pedagogical methodologies, and Japan's Suzuki tradition. The integrative essence, strengths, and limitations of each model are examined from a scientific and pedagogical perspective, and the possibilities of applying this experience to music-pedagogical education in Uzbekistan are substantiated from a scientific and practical perspective.

Key words: integral approach, music teacher, foreign experience, comparative pedagogy, Musikhochschule, Suzuki method, Kodály method, professional training, music pedagogy, higher education.

Аннотация: В данной статье проведён сравнительный анализ зарубежного опыта профессиональной подготовки будущих учителей музыки на основе интегрального подхода - системы Musikhochschule в Германии, модели Академии Сибелиуса в Финляндии, стандартов NASM и интеграции педагогических методик в США, а также традиции метода Судзуки в Японии. С научно-педагогической точки зрения освещены интеграционная сущность, сильные стороны и ограничения каждой модели, а также обоснованы возможности применения данного опыта в музыкально-педагогическом образовании Узбекистана.

Ключевые слова: интегральный подход, учитель музыки, зарубежный опыт, сравнительная педагогика, Musikhochschule, метод Судзуки, метод Кодая, профессиональная подготовка, музыкальная педагогика, высшее образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ta'lim jarayonlarining jadal transformatsiyasi sharoitida musiqa ta'limi tizimi oldida bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy kasbiy talablarga mos, ijodiy fikrlaydigan, pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qila oladigan hamda turli faoliyat yo'nalishlarini o'zaro uyg'unlashtira oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash vazifasi turibdi. Zamonaviy musiqa o'qituvchisi faqatgina musiqa nazariyasi, solfedjio, cholg'u ijrochiligi yoki vokal bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi bilan kifoyalanmaydi. Undan pedagogik, metodik, psixologik, kommunikativ, ijrochilik va kreativ kompetensiyalarni yagona kasbiy faoliyat tizimida namoyon eta olish talab etiladi. Shu jihatdan bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda turli bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda shakllantirishga yo'naltirilgan integral yondashuv alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Musiqa pedagogikasining o'ziga xosligi shundaki, unda ta'lim jarayoni nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda ijrochilik, musiqiy idrok, estetik tarbiya, ijodiy faoliyat va pedagogik muloqotning birligini taqozo etadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga musiqiy bilimlarni yetkazish bilan birga, ularning estetik didini shakllantirishi, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlashi va san'at vositasida shaxsiy



rivojlanishiga pedagogik ta'sir ko'rsatishi lozim. Bunday ko'p qirrali kasbiy faoliyat esa mutaxassis tayyorgarligini alohida fanlar doirasida emas, balki ularning mazmuniy va funksional integratsiyasi asosida tashkil etishni talab qiladi.

Integral yondashuvning muhim jihati shundan iboratki, bunda bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi o'zaro aloqador komponentlarning yaxlit tizimi sifatida qaraladi. Musiqiy-nazariy bilimlar ijrochilik ko'nikmalari, pedagogik metodlar psixologik bilimlar, kreativ faoliyat esa kommunikativ kompetensiyalar bilan uzviy bog'lanadi. Natijada talaba nafaqat muayyan bilim va ko'nikmalarni egallaydi, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda kompleks tarzda qo'llash, kasbiy muammolarni tahlil qilish va mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur masalada xorijiy davlatlarning musiqa pedagogikasiga oid ilg'or tajribasi alohida qiziqish uyg'otadi. Rivojlangan ta'lim tizimlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, ijodiy faoliyat, loyiha asosida o'qitish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, musiqa ijrochiligi va pedagogik faoliyatni birlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalash hamda talabaning mustaqil ijodiy faoliyatini rag'batlantirishga asoslangan tajribalar bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim metodik imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Xorij tajribasini o'rganishning ahamiyati uni bevosita milliy ta'lim tizimiga ko'chirishda emas, balki ilg'or pedagogik g'oyalarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va ularni milliy pedagogik sharoitlarga moslashtirishda namoyon bo'ladi. Chunki har bir mamlakatning musiqa ta'limi tarixiy, madaniy va pedagogik an'analari bilan bog'liq bo'lib, xorijiy tajribadan samarali foydalanish milliy qadriyatlar, o'zbek musiqa merosi va mavjud ta'lim imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, integral yondashuv xorijiy tajribaning ilg'or jihatlarini milliy musiqa pedagogikasi bilan bog'lash imkonini beruvchi metodologik asos sifatida qaralishi mumkin.

Integral yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikning muhim xususiyati turli fanlar va faoliyat yo'nalishlari o'rtasidagi mazmuniy hamda funksional aloqalarni kuchaytirishdan iborat. Xususan, musiqa nazariyasi, garmoniya, solfedjio kabi fanlarda shakllantirilgan bilimlarning vokal va cholg'u ijrochiligi, dirijyorlik, musiqa tinglash va pedagogik amaliyot bilan bog'lanishi talabaning musiqiy hodisalarni yaxlit idrok etishiga imkon beradi. Bunday integratsiya natijasida talaba egallagan nazariy bilimlarini amaliy ijrochilik va pedagogik faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan musiqa ta'limi tizimlarida bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda nazariya va amaliyotning uzviyligi muhim tamoyil sifatida qaraladi. Talabalarning individual ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, mustaqil ta'limni rag'batlantirish, jamoaviy ijrochilik va loyiha faoliyatidan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyalarni kompleks shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Mazkur tajribaning muhim jihati shundaki, talaba tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki musiqiy-pedagogik faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida qaraladi.

Integral yondashuvning yana bir muhim jihati bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijrochilik faoliyatini pedagogik faoliyat bilan bog'lash imkoniyatidir. Talabaning asarni ijro etishi, uning musiqiy mazmunini tahlil qilishi, badiiy obrazni yaratishi va mazkur ijro tajribasini o'quvchilarga o'rgatish metodikasi bilan bog'lashi kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligini ta'minlaydi. Natijada ijrochilik faoliyati faqat texnik mahoratni rivojlantirish vositasi bo'lib qolmay, pedagogik kompetensiyani shakllantirishning ham muhim omiliga aylanadi.

Shuningdek, xorijiy tajribada talabaning kreativ salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Musiqiy improvizatsiya, ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari, ansambl faoliyati va turli shakldagi mustaqil musiqiy izlanishlar talabaning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa kelajakdagi pedagogning o'quvchilarning individual qobiliyatlari va ijodiy ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishiga zamin yaratadi.

Integral yondashuvda psixologik tayyorgarlikning ham o'ziga xos o'rni mavjud. Musiqa ijrochiligi va pedagogik faoliyat ko'pincha yuqori darajadagi emotsional zo'rliq, sahna hayajoni, auditoriya oldida chiqish va tezkor pedagogik qaror qabul qilish bilan bog'liq. Shu sababli bo'lajak musiqa o'qituvchisida o'z hissiy holatini boshqarish, stressli vaziyatlarda barqarorlikni saqlash, diqqatni jamlash va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi bo'lishi lozim. Bu jihat musiqa ijrochiligi, psixologiya va pedagogika fanlari mazmunini integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak musiqa o'qituvchisini integral yondashuv asosida - ijrochilik, nazariya va pedagogikani uyg'unlashtirgan holda - tayyorlash masalasi jahon musiqa-pedagogik ta'limida turlicha, milliy an'analarga xos yondashuvlar orqali hal etilmoqda^[1]. Ushbu xalqaro tajribani o'rganish O'zbekiston musiqa-pedagogik ta'limini isloh qilishda ilmiy asoslangan qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



Turli mamlakatlar musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda o'ziga xos institutsional-metodik yechimlarni qo'llaydilar - bu Germaniyaning konservatoriya-universitet hamkorligi, Finlyandiyaning keng qamrovli akademik modeli yoki Yaponiyaning ustoz-shogird an'anasiga asoslangan tizimi bo'lishi mumkin^[2]. Ushbu tajribalarni tizimli qiyoslash orqaligina ularning eng mos jihatlari aniqlash va mahalliy sharoitga moslashtirish mumkin bo'ladi.

Germaniya musiqa ta'limi tizimining institutsional tuzilishi xorijiy musiqashunos-pedagoglarning tadqiqotlarida^[1] yoritilgan bo'lib, unda konservatoriya va universitet hamkorligiga asoslangan tayyorgarlik modeli asoslangan. Finlyandiya musiqa ta'limi tizimining o'ziga xos jihatlari xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda^[2] tahlil qilingan.

AQShdagi Milliy Musiqa Maktablari Assotsiatsiyasi (NASM) standartlari va Kodály, Orff, Dalcroze metodikalarining integratsiyasi amerikalik musiqa pedagogikasi tadqiqotchilarining ishlarida^[3] yoritilgan.

Yaponiyaning Suzuki metodi esa uning asoschisi Shinichi Suzukining o'z asarlarida^[4] batafsil bayon etilgan. Mahalliy musiqa pedagogikasi fanida

O. Matyoqubov^[5]ning ishlarida xorijiy musiqa ta'limi tajribasini o'rganishning umumiy tamoyillari yoritilgan.

TADQIQOT METOLOGIYASI

Olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aynan integral yondashuv nuqtai nazaridan turli xorijiy modellarni bir tizimda qiyoslovchi, ularning O'zbekiston sharoitiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan aniq jihatlari ko'rsatuvchi kompleks qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Germaniyaning Musikhochschule (musiqa oliy maktabi) tizimini tahlil qilishda uning asosiy tamoyili - konservatoriya darajasidagi yuqori ijrochilik ta'limi bilan universitet darajasidagi chuqur pedagogik-nazariy ta'limni institutsional hamkorlik asosida birlashtirishdan iboratligini ko'rsatish mumkin^[1]. Ushbu modelning kuchli tomoni yuqori ijrochilik standarti bilan puxta pedagogik tayyorgarlikning muvozanatli uyg'unligi hisoblanadi, biroq bu ikki institutsional tizim o'rtasidagi murakkab muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Finlyandiyaning Sibelius akademiyasi modeli esa ijrochilik, kompozitsiya, nazariya va pedagogikani yagona, keng qamrovli o'quv dasturi doirasida integratsiyalashtiradi^[2]. Bu modelning afzalligi talabaga turli musiqiy yo'nalishlarni erkin tanlash va birlashtirish imkoniyatini beruvchi moslashuvchan dastur tuzilishida, biroq bunday tizim yuqori darajadagi moliyaviy va infratuzilma resurslarini talab qiladi.

AQShning yondashuvi Milliy Musiqa Maktablari Assotsiatsiyasi (NASM) tomonidan belgilangan milliy akkreditatsiya standartlari doirasida turli pedagogik metodikalarni - Kodály, Orff, Dalcroze - o'quv dasturiga integratsiyalashtirishga asoslanadi^[3]. Ushbu yondashuvning kuchli tomoni uning amaliyotga yo'naltirilganligi va turli sinalgan xalqaro metodikalardan moslashuvchan foydalanish imkoniyatida, biroq markazlashgan, yagona milliy dasturning yo'qligi amaliyotning universitetlar bo'yicha sezilarli farq qilishiga olib keladi.

Yaponiyaning Suzuki metodi an'anasi butunlay boshqacha, ustoz-shogird tizimiga asoslangan integratsion yondashuvni namoyish etadi^[4]. Ushbu an'anaga ko'ra, ijrochilik mahorati va pedagogik ko'nikmalar bolalikdan boshlab, uzviy va bosqichma-bosqich shakllantiriladi, bo'lajak pedagog o'zi ham yosh bolalikdan boshlab shu tizim ichida tarbiyalanadi. Bu modelning kuchli tomoni erta yoshdan boshlab amaliy-pedagogik tajriba orttirish imkoniyatida, biroq uni universitet darajasidagi rasmiy akademik ta'limga to'liq integratsiyalashtirish murakkab masala hisoblanadi.

Ushbu to'rt modelni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning barchasida umumiy bir tamoyil mavjud - ijrochilik, nazariya va pedagogikani alohida, bir-biridan ajratilgan fanlar sifatida emas, balki yagona kasbiy vazifalar atrofida uyg'unlashtirilgan holda o'qitish^[5]. Shu bilan birga, har bir model o'ziga xos milliy-institutsional kontekstga chambarchas bog'liq bo'lib, uni tayyor holda ko'chirish maqsadga muvofiq emas.

O'zbekiston uchun eng oqilona strategiya - bu turli modellarning eng mos elementlarini (Germaniyadan institutsional hamkorlik, AQShdan sinalgan metodikalarni tanlab integratsiyalashtirish, Yaponiyadan erta amaliy tayyorgarlik tajribasini) tanlab, mahalliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etishdan iborat bo'lishi kerak.

Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashga oid to'rtta asosiy xorijiy modelni qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning har birining asosiy integratsion yondashuvi, kuchli tomonlari, cheklovlari hamda O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari tizimlashtirildi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umimlashtirilgan holda keltirilgan:



1-jadval: Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda xoriji modellarining qiyosiy tahlili

No	Davlat / model	Asosiy integratsion yondashuv	Kuchli tomonlari	O'zbekiston uchun tatbiq imkoniyati
1	Germaniya (Musikhochschule tizimi)	Konservatoriya darajasidagi ijrochilik ta'limi bilan universitet darajasidagi pedagogik-nazariy ta'limni institutsional hamkorlik asosida birlashtirish	Yuqori ijrochilik standarti bilan chuqur pedagogik-nazariy tayyorgarlikning muvozanatli uyg'unligi	Musiqa akademiyalari bilan pedagogika universitetlari o'rtasida hamkorlik dasturlarini yo'lga qo'yish
2	Finlyandiya (Sibelius akademiyasi modeli)	Ijrochilik, kompozitsiya, nazariya va pedagogikani yagona, keng qamrovli o'quv dasturi doirasida integratsiyalashtirish	Talabaga turli musiqiy yo'nalishlarni erkin tanlash va birlashtirish imkoniyatini beruvchi moslashuvchan dastur	O'quv dasturiga tanlov (elektiv) fanlar orqali moslashuvchanlik unsurlarini kiritish
3	AQSh (NASM standartlari va Kodály-Orff-Dalcroze metodlari integratsiyasi)	Milliy akkreditatsiya standartlari (NASM) doirasida turli pedagogik metodikalarni (Kodály, Orff, Dalcroze) o'quv dasturiga integratsiyalashtirish	Amaliyotga yo'naltirilgan, turli xalqaro pedagogik metodikalardan foydalanishning moslashuvchan tizimi	Kodály va Orff kabi sinalgan xalqaro metodikalarni mahalliy dasturlarga tanlab integratsiyalashtirish
4	Yaponiya (Suzuki metodi an'anasi)	Ijrochilik mahorati va pedagogik ko'nikmalarni bolalikdan boshlab, ustoz-shogird tizimi orqali uzviy birlashtirilgan holda rivojlantirish	Erta yoshdan boshlab amaliy-pedagogik tajriba orttirish, chuqur ustoz-shogird an'analarning mavjudligi	Pedagogik amaliyotni erta bosqichlardan boshlab, mentorlik tizimini kuchaytirgan holda joriy etish

1-jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlildan ko'rinib turibdiki, xalqaro tajribada bo'lajak musiqa o'qituvchisini integral tayyorlashning yagona, universal modeli mavjud emas - har bir davlat o'zining musiqiy-pedagogik an'analari va institutsional imkoniyatlariga mos yondashuvni tanlagan.

O'zbekiston uchun eng muhim xulosa shundaki, xorijiy tajribani "tayyor andoza" sifatida emas, balki tanlab, moslashtirib qo'llash zarur. Germaniya modelidan musiqa akademiyalari bilan pedagogika universitetlari o'rtasida institutsional hamkorlik tajribasini, AQSh modelidan sinalgan xalqaro pedagogik metodikalarni tanlab integratsiyalashtirish tajribasini, Yaponiya modelidan esa erta amaliy-pedagogik tayyorgarlik va mentorlik tizimini kuchaytirish tajribasini o'rganish va bosqichma-bosqich sinab ko'rish istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi. Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil xalqaro tajribani tanlab-moslashtirib qo'llash strategiyasining O'zbekiston musiqa-pedagogik ta'limi uchun eng oqilona yo'l ekanligini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashga oid xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, dunyoning ilg'or musiqa-pedagogik ta'lim tizimlari ushbu vazifani turli institutsional-metodik strategiyalar - institutsional hamkorlik (Germaniya), keng qamrovli akademik integratsiya (Finlyandiya), standartlashtirilgan metodikalar tanlovi (AQSh) va ustoz-shogird an'anasi (Yaponiya) - orqali amalga oshirmoqda.

O'zbekiston musiqa-pedagogik ta'limi tizimini takomillashtirishda ushbu xalqaro tajribalarni tanqidiy tahlil qilib, ularning eng mos elementlarini mahalliy sharoitga moslashtirgan holda, bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi eng oqilona yo'l hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu xalqaro tajribalarning O'zbekiston oliy musiqa-pedagogik ta'lim muassasalarida amaliy sinovlaridan olingan natijalarni chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, integral yondashuv bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini alohida bilim va ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan kasbiy kompetensiyalar tizimi sifatida shakllantirish imkonini beradi. Xorijiy tajribada qo'llanilayotgan integrativ, amaliyotga yo'naltirilgan va talaba markazli yondashuvlarni milliy musiqa ta'limining mazmuni bilan uyg'unlashtirish orqali bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijrochilik, pedagogik, kommunikativ, psixologik va kreativ salohiyatini kompleks rivojlantirish mumkin. Mazkur holat integral yondashuvni zamonaviy musiqa pedagogikasida bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi istiqbolli metodologik yo'nalish sifatida baholash imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gruhn W. Geschichte der Musikerziehung: Eine Kultur- und Sozialgeschichte vom Gesangunterricht der Aufklärungspädagogik zu multimedialen Lernwelten. – Hofheim: Wolke Verlag, 2003. – 384 S.
2. Heikkinen O. Music Teacher Education in Finland: A Comparative Perspective // International Journal of Music Education. – 2018. – Vol. 36, №2. – P. 210–225.
3. National Association of Schools of Music (NASM). Handbook. – Reston: NASM, 2023.
4. Suzuki S. Nurtured by Love: The Classic Approach to Talent Education. – Van Nuys: Alfred Music, 1983. – 122 p.
5. Matyoqubov O. Musiqa nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Musiqa, 2012. – 264 b.
6. Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped fan doktori dissertatsiyasi. T.: 2022. 298 b.
7. Yunusov R. O'zbekistonda musiqa ta'limi tizimi: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 198 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.